

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida Buxoro viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 86 608,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024-yilning yanvar-dekabr oylari bilan taqqoslaganda 7,2 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2024-yilning yanvar-dekabr oylari narxlariga nisbatan 110,0 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Buxoro viloyatining qo'shgan hissasi 4,7 % ga yetdi.

## 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida Buxoro viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



## 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



|                                                        | Mlrd. so'm      |                 | O'sish<br>sur'atlari,<br>o'tgan yilning<br>mos davriga<br>nisbatan % da |
|--------------------------------------------------------|-----------------|-----------------|-------------------------------------------------------------------------|
|                                                        | 2024- yil       | 2025- yil       |                                                                         |
| <b>I. YAHM, jami</b>                                   | <b>73 434,1</b> | <b>86 608,1</b> | <b>107,2</b>                                                            |
| <i>shu jumladan:</i>                                   |                 |                 |                                                                         |
| tarmoqlarning yalpi<br>qo'shilgan qiymati              | 71 842,1        | 84 662,0        | 107,2                                                                   |
| mahsulotlarga sof soliqlar                             | 1 592,0         | 1 946,1         | 108,8                                                                   |
| <b>II. Tarmoqlarning yalpi<br/>qo'shilgan qiymati</b>  | <b>71 842,1</b> | <b>84 662,0</b> | <b>107,2</b>                                                            |
| qishloq, o'rmon<br>va baliqchilik xo'jaligi            | 24 391,6        | 27 500,8        | 104,2                                                                   |
| sanoat<br>(qurilishni qo'shgan holda)                  | 21 928,2        | 26 343,3        | 108,4                                                                   |
| sanoat                                                 | 15 013,2        | 18 383,4        | 107,1                                                                   |
| qurilish                                               | 6 915,0         | 7 959,9         | 111,3                                                                   |
| xizmatlar                                              | 25 522,3        | 30 817,9        | 109,0                                                                   |
| savdo, yashash va<br>ovqatlanish<br>bo'yicha xizmatlar | 9 127,3         | 11 051,1        | 111,0                                                                   |
| tashish va saqlash,<br>axborot va aloqa                | 3 977,1         | 5 203,5         | 117,6                                                                   |
| boshqa xizmat tarmoqlari                               | 12 417,9        | 14 563,3        | 104,8                                                                   |

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 41 399,1 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 5,6 % ga yuqoridir.

## 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



## 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



## Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)


|                                                       | 2024- yil    | 2025- yil    |
|-------------------------------------------------------|--------------|--------------|
| <b>I. YAHM, jami</b>                                  | <b>100,0</b> | <b>100,0</b> |
| <i>shu jumladan:</i>                                  |              |              |
| tarmoqlarning yalpi<br>qo'shilgan qiymati             | 97,8         | 97,8         |
| mahsulotlarga sof soliqlar                            | 2,2          | 2,2          |
| <b>II. Tarmoqlarning yalpi<br/>qo'shilgan qiymati</b> | <b>100,0</b> | <b>100,0</b> |
| qishloq, o'rmon<br>va baliqchilik xo'jaligi           | 34,0         | 32,5         |
| sanoat<br>(qurilishni qo'shgan holda)                 | 30,5         | 31,1         |
| sanoat                                                | 20,9         | 21,7         |
| qurilish                                              | 9,6          | 9,4          |
| xizmatlar                                             | 35,5         | 36,4         |
| savdo, yashash va ovqatlanish<br>bo'yicha xizmatlar   | 12,7         | 13,1         |
| tashish va saqlash,<br>axborot va aloqa               | 5,5          | 6,1          |
| boshqa xizmat tarmoqlari                              | 17,3         | 17,2         |

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,8 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,2 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 32,5 % ni, sanoat tarmog'i 21,7 % ni, qurilish 9,4 % ni va xizmatlar sohasi 36,4 % ni tashkil qildi.

## Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2024- yil



2025- yil



● Yalpi qo'shilgan qiymat


● Mahsulotlarga sof soliqlar



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,4 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 1,1 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,4 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 1,2 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,1 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 0,6 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,1 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 2,5 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 0,2 f.p.) ga ko'paydi .

## 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2025-yilning yanvar-dekabr oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,2 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 32,5 %), sanoatda – 107,1 % (21,7 %), qurilishda – 111,3 % (9,4 %), xizmatlar sohasida – 109,0 % ni (36,4 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 111,0 % (13,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 117,6 % (6,1 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,8 % dan (17,2 %) iborat bo'ldi.

## Yanvar-dekabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025-yilning yanvar-dekabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024-yilning yanvar-dekabr oylaridagi narxlarga nisbatan 110,0 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat tarmog'ida – 114,4 % va xizmatlar sohasida – 110,8 % qayd etildi.

**Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi**  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)





2025-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik 60 135,3 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2024-yilning yanvar-dekabr oylarida – 51 999,3 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 71,0 % ni (2024-yilning yanvar-dekabr oylarida – 72,4 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bogʻliq.

**Yanvar-dekabr oylarida kichik biznesning hajmi va  
YAHMdagi ulushi**  
(jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.soʻm

Ulushi, % da

2024- yil

51 999,3

72,4 %

2025- yil

60 135,3

71,0 %

